

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR**  
**VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING**  
**KATTAQO'RG'ON FILIALI**

**Ro'yxatga olindi:**

№ BD-60110700.1.07.



**“TASDIQLAYMAN”**

Direktor:

Sh.R.Urakov

2024- yil “ ”

**ADABIYOTSHUNOSLIK ASOSLARI**  
**FANINING O'QUV DASTURI**

|                           |                                   |
|---------------------------|-----------------------------------|
| <b>Bilim sohasi:</b>      | 100 000 – Ta'lim                  |
| <b>Ta'lim sohasi:</b>     | 110 000 – Ta'lim                  |
| <b>Ta'lim yo'nalishi:</b> | 60110700–O'zbek tili va adabiyoti |

| Fan/modul kodi<br>AA1105   |  | O'quv yili<br>2024-2025                | Semestr<br>1 | ECTS – Kreditlar<br>5        |               |
|----------------------------|--|--|--------------|------------------------------|---------------|
| Fan/modul turi<br>Majburiy |  | Ta'lim tili<br>O'zbek                  |              | Haftadagi dars soatlari<br>4 |               |
| 1.                         | Fan nomi<br>“Adabiyotshunoslik asoslari” | Auditoriya<br>mashg'ulotlari<br>(soat) |              | Mustaqil<br>ta'lim (soat)    | Umumiy (soat) |
|                            |  | 60                                     |              | 90                           | 150           |

2.

### I. Fanning mazmuni:

“Adabiyotshunoslik asoslari” fani 60110700 — O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni, ularda adabiyotning spetsifik xususiyatlari, badiiy-estetik, ijtimoiy hamda ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini anglab yetishi, adabiyotning ilmiy-nazariy asoslari, janr xususiyatlari, badiiy ifoda vositalari, obrazlilik, syujeti, kompozitsiya, uslub, obraz kabi tushunchalar haqida bilimga ega bo'lishi, shu asosda keyingi bosqichlardagi mutaxassislik fanlarini egallashga zamin hozirlaydi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda adabiyotshunoslikning tadqiq obyekti bo'lgan badiiy adabiyot haqida tushuncha berish, badiiy asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, milliy va umuminsoniy mohiyati, adabiy-nazariy tafakkur tarixidagi o'rni, janr xususiyatlari, obrazlilik, badiiy obraz, xarakter va tip, syujet va kompozitsiya, til va uslub, badiiy tasvir vositalari kabi nazariy masalalar, shuningdek, ijodiy metod, adabiy yo'nalish va oqimlar haqida o'zbek va jahon adabiyotshunosligi kesimida beriladigan bilim, ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

**Adabiyotshunoslik asoslari fanining vazifasi** – talabalarga bosqichma-bosqich badiiy adabiyotning mohiyatini, adabiy tur va janrlar, obraz va obrazlilik, she'r tizimlari, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatib borish, nutqiy, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish, chinakam ilm egalari etib tarbiyalash

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

##### 1-mavzu: “Adabiyotshunoslik asoslari” fan sifatida. Badiiy asar tushunchasi.

Adabiyotshunoslik fan sifatida. Adabiyotshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiyotshunoslikning tadqiq obyekti – badiiy asar. Badiiy asar - badiiy kommunikatsiya vositasi. Badiiy ijod jarayoni haqida.

##### 2-mavzu: Badiiy asarda shakl va mazmun. Zamon va makon.

Shakl va mazmun tushunchalari haqida. Badiiy asarda shakl va mazmun birligi. “Badiiy asar shakli” va “badiiy asar mazmuni” tushunchalarining shartlilik. Mazmunning shaklga, shaklning mazmunga muvofiqligi badiiyatining muhim sharti sifatida. Shakl va mazmunning originalligi haqida. Zamon va makon tushunchasi.

##### 3-mavzu: Badiiy obraz va obrazlilik

Badiiy obraz va uning asosiy xususiyatlari. Inson obrazi badiiy adabiyotning o'zagi sifatida. Inson obrazini yaratish yo'llari. Badiiy obrazlar tasnifi. Badiiy obraz spetsifikasi.



Badiiy obraz rasional va emosional birlik sifatida. Badiiy obrazning ko'p ma'noliligi. Metaforiklik va assosiativlik.

#### **4-mavzu: Syujet va kompozitsiya. Konflikt.**

Syujet haqida tushuncha. Syujet turlari. Syujet komponentlari. Syujetning badiiy asardagi o'rni va poetik vazifasi. Badiiy asar kompozitsiyasi. Kompozitsion vositalar. Epik nutqning kompozitsion shakllari: rivoya, tavsif, dialog. Obrazlar sistemasi. Badiiy vaqt. Tashqi kompozitsiya. Konflikt va uning turlari. Xarakterlararo konflikt. Qahramon va muhit konflikti. Ichki(psixologik) konflikt.

#### **5-mavzu: Adabiy tur va janrlar nazariyasi.**

Adabiy turlar va janrlar haqida tushuncha. Epik tur va uning janrlari. Lirik tur va uning janrlari. Lirik turning spesifik xususiyatlari. Lirik qahramon tushunchasi. Lirik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari. Hozirgi she'riyatdagi lirik janrlar xususiyati. Liro-epik asarlar. Dramatik turning o'ziga xos xususiyatlari. Drama va teatr, dramatik asar va uning sahna talqini. Dramatik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari. Dramatik janrlar haqida.

#### **6-mavzu: Badiiy asar tili va badiiy tasvir vositalari**

Badiiy (poetik) til tushunchasi. "Poetik til" va umumxalq tili va "adabiy til" tushunchalari, ularning o'zaro munosabati. Badiiy asar tilining ifodaviyligi. Badiiy nutq shakllari: sochma (nasr)va tizma (she'riy); monologik va dialogik. Badiiy tilning an'anaviyligi. Tasvir va ifoda vositalari haqida umumiy tushuncha. Tildan foydalanishda normadan "og'ish" tushunchasi va uning turlari. Leksik sathdagi normadan og'ish: "so'z tanlash" asosida tasviriylik va ifodaviylikni kuchaytirish. Trop(ko'chim) semantik sathdagi normadan og'ish sifatida. Tropning asosiy turlari.

#### **7-mavzu: She'r tuzulishi. Vazn**

She'riy va nasriy nutq haqida. Ritm Tushunchasi. "She'r tizimi" va "vazn" tushunchalari haqida. She'riy tizimlar. Metrik, melodik, sillabik, tonik she'r tizimlari. Aruz tushunchasi haqida. Aruzda ritmik bo'laklar: harf, juzv, rukn, bahr. Solim va far'iy bahrlar. Zihof. Mumtoz lirikada aruzning qo'llanishi. Barmoq vazni – milliy vazn. Turoqlanish tartibi, ritm va ohang. Sodda va qo'shma vazn.

#### **8-mavzu: Adabiy jarayon. Ijodiy metod va oqimlar**

Ijodiy metodlar haqida ma'lumot. Adabiy jarayon tushunchasi. Adabiyot taraqqiyotining ichki va tashqi omillari. Adabiy jarayonning yetakchi tamoyillarini belgilash prinsiplari.

### **III. Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to'g'risidagi fan.
2. Obraz va obrazlilik.
3. Badiiy asarda shakl va mazmun.
4. Badiiy asarda konflikt va xarakter.
5. Badiiy asar kompozitsiyasi.
6. Badiiy asar syujeti.
7. Adabiy tur va janrlar estetikasi.
8. Epik tur janrlari. Hikoya janri .
9. Qissa janri.
10. Roman janri. O'zbek romanchiligi taraqqiyoti.
11. Lirik tur va uning janrlari.
12. Dramatik tur va uning janr xususiyatlari.
13. Lirik, epik va dramatik asar kompozitsiyasi.
14. Badiiy tilning obrazlilik va emotsionalligi.
15. Badiiy tasvir va ifoda vositalari.

16. Ma'naviy va lafziy san'atlar.
17. Mumtoz qofiya turlari.
18. Barmoq tizimi.
19. Aruz tizimi.
20. Erkin she'r tizimi.
21. Metod va oqimlar (romantizm, realizm, modernizm).
22. Adabiy hayot va jarayon.

#### IV. IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

##### Mustaqil ta'lim uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Badiiy asarda mazmun va shakl.
2. A.Qahhorning "Anor" hikoyasi tahlili.
3. Badiiy asar tili. Tasvir vositalari
4. Mumtoz she'riy janrlar va ularga xos xususiyatlarni o'rganish.
5. A. Navoiy ijodidan 1 ta g'azal yod olish va vazn xususiyatlarini tushuntirish.
6. Cho'lponning "Go'zal" she'rini yod olish, vazn xususiyatlarini tushuntirish.
7. Ozod Sharafiddinov – iste'dodli adabiy tanqidchi.
8. Hozirgi she'riyatda mavzular rang-barangligi. Yoshlar she'riyatini tahlil qilish
9. Dramaturgiya va uning janrlari.
10. H.Olimjonning "O'zbekiston" she'rini yod olish va tahlil qilish.
11. A.Oripovning "Yurtim shamoli", "Ketganlar yodi", "Alisher" she'rlarini yod olish va tahlil qilish.
12. Mumtoz she'riy san'atlar haqida ma'lumot berish.
13. Z.M.Boburning g'azallaridan yod olish va she'riy san'atlarni tahlil qilish.
14. Badiiy asar tilining o'ziga xosligi.
15. Jadid adabiyoti namoyandalarining madaniyat, ma'rifat, adabiyotga oid fikrlari.
16. A.Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asarini o'qish.
17. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida obrazlar tahlili.
18. E.Vohidovning "Do'st bilan obod uying", "Barcha shodlik senga bo'lsin", "Kamtarli hqida" she'rlaridan birini yod olish va tahlil qilish.
19. Ijodiy metod tushunchasi. Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasi misolida.
20. M.Yusuf she'rlaridan yod olish va tahlil qilish.
21. Adabiyot va mafkura mavzusida davra suhbatiga tayyorgarlik ko'rish.
22. Asar tahlili.
23. Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" va "Oydinda yurgan odamlar" qissalarini mutolaa qilish.
24. Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasini o'qish.
25. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romanini o'qib, muhokama qilish.
26. "O'zbek adabiyotshunoslari va ularning fan rivojida tutgan o'rni" mavzusida taqdimot tayyorlash.
27. Ijodkorning adabiy-estetik qarashlari. Muayyan ijodkorning adabiy-tanqidiy qarashlari asosida referat tayyorlash.
28. I.Yakubov. "Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi" kitobini o'qib o'rganish.
29. Q.Qahramonov. "Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari" kitobidan "adabiy tanqidda yondashuv va metodlar takomili" bo'limini o'qib o'rganish.
30. D.Quronovning "Adabiyot nazariyasi" (2018) kitobini o'qib o'rganish.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**  
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:



|    |   |
|----|---|
|    | <ul style="list-style-type: none"> <li>Adabiyot va Adabiyotshunoslik asoslari fanining tub mohiyatini, badiiy adabiyotning janr va turlari, badiiy til vositalarining qo'llanilishi, mumtoz adabiyot, hozirgi adabiy jarayon, poetik sintaksis, epik va lirik tur haqida umumiy xulosa va badiiy sar tahlili va tadqiqi, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>;</li> <li>Adabiyotda yaratilgan barcha asarlarning tub mohiyatini yoritish, lirik tur san'atlarini mustaqil ravishda tahlil qilish jarayonini o'rganish, adabiyotning til xususiyatlari, poetik ko'chimlar, qofiya saboqlari va ularning tilshunoslik bilan bog'liqligi haqida <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> <li>Adabiyotshunoslik asoslari fanining tarixi, rivojlanish jarayoni, adabiyotshunoslikning nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid va metodlarini bilish, ulardan foydalana olish, adabiyotdagi tur va jarlar o'rtasidagi munosabatlarni yoritish va tahlil qilish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>   |
| 4. | <b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>audio va videoma'ruzalar;</li> <li>taqdimot;</li> <li>matn ustida ishlash.</li> </ul>   |
| 5. | <b>VII. Kreditni olish uchun talablar:</b><br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish   |
| 6. | <b>Asosiy adabiyotlar:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>Boboyev To'xta. "Adabiyotshunoslik asoslari" "O'zbekiston" nashriyoti. 2002.</li> <li>Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., "Xalq merosi" nashriyoti, 2004.</li> <li>To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.,2002.</li> <li>Erkin Xudayberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. -T., 2007.</li> <li>Hotam Umurov. Adabiyot qoidalari. –T., O'qituvchi.2011.</li> <li>Dilmurod Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari. –T., Akademnashr, 2018.</li> </ol> <b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>A.Salayev, G.Qurbonniyozov. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug'ati. T., 2010</li> <li>Hotam Umurov Adabiyotshunoslik nazariyasi T., 2004</li> <li>Арасты. "Поэтика", "Ахлоқи кабир", "Риторика" –Т.2004</li> <li>Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –T., "O'qituvchi", 2002.</li> <li>Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.,2018</li> </ol> <b>Axborot manbalari (saytlar):</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>www.literature.uz</li> <li>www.ziyounet.uz/</li> <li>www.adabiyot.uz/</li> </ol> |
| 7. | Fan dasturi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Kengashining 2024__-yil _____dagi _____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.   |
| 8. | <b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b><br>M.Rustamov – SamDUKF, "O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi   |
| 9. | <b>Taqrizchilar:</b><br>D.G'aniyeva – SamDUKF , "O'zbek tili va gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi (ichki)  |

tasdiqlangan taqriz oxiridan qo'shiladi.

I.Sulaymonov.- SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, f.f.d. (tashqi)  
tasdiqlangan taqriz oxiridan qo'shiladi.